




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

07 sentyabr, 2026 yil

SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (20 oktabr 2025 yildan 07 sentyabr 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,255% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 6,292% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,038% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,623% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich 9,625% darajaga oshdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 9,679% gacha o'zgarib turdi.



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,174% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,215% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,624% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,28% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,282% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-6,724% gacha o'zgarib turdi.




AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,33% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,413% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,059% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,5-3,73% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,66% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko'rsatkich o'zgarishsiz— 3,66 darajasida qoldi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,679% (3 oylik) va 2,794% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,794% (6 oylik) va 2,679% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 450,5 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 450,5 million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 11 813 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib 11 785 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya 1,40% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




07.09.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Poytaxt bank* da qayd etilgan – 11 785 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 11 820 – 11 840 so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *Tenge bank*da qayd etilgan – 11 780 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 11 775 – 11 725 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi



EUR-USD dinamikasi



USD/RUB: kurs barqarorligini saqlamoqda

Sentabr oyining boshida AQSh dollarining Rossiya rubliga nisbatan kursi deyarli o'zgar olmay, barqaror dinamikani namoyish etmoqda. 1–4-sentabr kunlari kurs 87,1 rubldan 87,5 rublgacha oshdi, bu esa valyuta bozorida nisbatan barqaror holat saqlanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kunlik o'zgarishlar juda kichik bo'lib, valyuta kursining o'zgaruvchanlik darajasi pastligicha qolmoqda. Qisqa muddatli istiqbolda USD/RUB kursining dinamikasi ichki valyuta bozoridagi vaziyat, eksport tushumlari oqimi hamda pul-kredit siyosatiga oid kutilmalarga bog'liq bo'ladi. Amaldagi omillar saqlanib qolgan taqdirda, kurs joriy darajalar atrofida harakatlanishini davom ettirishi mumkin.



RUB/CNY: kurs barqarorligini saqlamoqda

Sentabr oyining boshida Rossiya rublining Xitoy yuaniga nisbatan kursi barqarorligicha qolmoqda. 1–4-sentabr kunlari ko'rsatkich 1 yuan uchun 12,4 rubl darajasida o'zgarmadi. Mazkur davr mobaynida kurs 12,4–12,5 rubl oralig'ida tor diapazonda shakllandi. O'zgarishlarning minimal darajada bo'lishi valyuta bozorida aniq yo'nalishdagi harakat kuzatilmayotganidan dalolat beradi. Qisqa muddatli istiqbolda kurs dinamikasi valyutaga bo'lgan talab, tashqi savdo oqimlari hamda valyuta bozoridagi umumiy vaziyatga bog'liq bo'ladi. Amaldagi omillar saqlanib qolgan taqdirda, kurs shakllangan diapazon doirasida harakatlanishi kutilmoqda.




EUR/USD: yevro kursi barqarorligicha qolmoqda


Sentabr oyining boshida yevroning AQSh dollariga nisbatan kursi nisbatan barqaror bo'lib qolmoqda. 1–4-sentabr kunlari EUR/USD valyuta juftligi 1,1624 dan 1,1633 gacha o'zgardi, mazkur davr mobaynida esa 1,1608–1,1641 oralig'ida shakllandi. Kursdagi kichik o'zgarishlar bozordagi faollikning mo'tadil ekanini va aniq yo'nalishdagi harakat mavjud emasligini ko'rsatadi. Qisqa muddatli istiqbolda yevro kursining dinamikasi AQSh va yevro hududidagi pul-kredit siyosatiga oid kutilmalar, shuningdek, muhim makroiqtisodiy ma'lumotlarning e'lon qilinishiga bog'liq bo'ladi. Amaldagi omillar saqlanib qolgan taqdirda, valyuta juftligi joriy darajalar atrofida harakatlanishini davom ettirishi mumkin.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlar dinamikasi
(bir untsiya uchun, AQSh dollarida)



Brent nefti narxlar dinamikasi
(bir barrel uchun, AQSh dollarida)



TTF gaz narxlar dinamikasi
(megavatt-soat uchun, AQSh dollarida)



Oltin: o'sishdan so'ng narxlar barqarorlashmoqda



Sentabr oyining boshida oltin narxi himoya aktivlariga yuqori talab fonida o'sishni davom ettirdi. 1–3-sentabr kunlari narx 4 328,6 dan 4 472,9 gacha ko'tarilgach, 4-sentabr kuni 4 427,7 gacha korreksiya qilindi. Pasayish jadal o'sishdan so'ng foydaning qayd etilishi, shuningdek, AQSh dollari dinamikasi va foiz stavkalariga oid kutilmalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, oltinning umumiy dinamikasi ijobiylikicha qolmoqda. Qisqa muddatda yuqori o'zgaruvchanlik saqlanishi mumkin. 4 400 darajasi muhim tayanch bo'lib, ushbu daraja saqlangan taqdirda o'sishning qayta tiklanish ehtimoli yuqori.

Brent: narxlar o'sishda davom etmoqda



Sentabr oyining boshida Brent markali neft kotirovkalari o'sishda davom etdi. 1–4-sentabr kunlari narx 94,65 dollardan 96,28 dollargacha ko'tarildi, 2-sentabrdagi kichik pasayishga qaramay, umumiy dinamika ijobiy bo'ldi. Bozorni talab va taklif muvozanatiga oid kutilmalar hamda jahon energetika bozoridagi noaniqlik qo'llab-quvvatlamogda. Qisqa muddatda narxlar o'zgaruvchan bo'lib qolishi mumkin. Amaldagi omillar saqlansa, Brent narxining keyingi o'sish salohiyati saqlanib qoladi. Bozor uchun yaqin mo'ljal bir barrel uchun 96–97 dollar diapazonidir.

Gaz TTF: narxlar korreksiyaga o'tdi



Sentabr oyining boshida TTF tabiiy gaz narxlar yuqori o'zgaruvchanlikni namoyon etmoqda. Narx 83,6 dollardan 84,9 dollargacha ko'tarilgach, 2-sentabrdan pasayishni boshladi va 4-sentabr kuni 82,3 dollargacha tushdi. Korreksiya investorlar tomonidan foydaning qayd etilishi hamda talab va taklifga oid kutilmalarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. So'nggi kunlardagi pasayishga qaramay, narxlar nisbatan yuqori darajada qolmoqda. Qisqa muddatda dinamika gaz zaxiralari darajasi, ob-havo sharoiti va Yevropaga yetkazib berishlar holatiga bog'liq bo'ladi.